

LINGUISTIC FEATURES SPECIFIC TO THE NAMING OF THE "TUTAKOTA" STEP

Abdurakhmanova Zumrad Normurod qizi

Nurafshon city 10th general secondary school teacher of native language and literature

Abstract. Place names and opinions on their naming were given. Comments on their semantics were considered. Scientific and folk explanations regarding the origin of Tutak toponym were compared.

Keywords. Lexical units, toponomics, semantic features specific to toponyms.

Annotatsiya. Joy nomlari va ularning nomlanishiga doir fikrlar keltirildi. Ularning semantikasiga oid mulohazalar ko'rib chiqildi. Tutak toponimining kelib chiqishiga oid ilmiy hamda xalq tomonidan aytilgan izohlar qiyoslandi.

Kalit so'zlar. Leksik birliklar, toponomika, toponimlarga xos semantik xususiyatlar.

Hozirgi kunda yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilshunoslik sohasida ham qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tilshunoslarimiz til aspektlarini turli jihatlarini talqin va tahlil qilishmoqda. Ammo bugungi kunda juda dolzarb bo'lib turgan tilshunoslik tarmoqlaridan biri toponimlar va ularning lingvistik tahlili masalasida talay izlanishlar olib borilish talab etiladi. Toponimlarni lingvistik aspektda o'rganish, leksik birlik sifatidagi nomlanish xususiyatlarini tahlil qilish, onomastik birliklar semantikasini yoritish, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Toponimlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, ma'no xususiyatlarini o'rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, nominativ, kommunikativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda ahamiyatlidir.

Bugungi kunda toponomika sohasi ancha rivojlangan bo'lsada ba'zi hududlardagi toponimlarning nomlanishiga oid turli xil tadqiqlar bu sohaning juda keng qamrovli, izlanishni talab etuvchi toponimlari borligidan darak beradi.

Joy nomlari atqoli ot sifatida tilshunoslikning, orientirlash belgisi sifatida geografiya, o'tmish voqea-hodisalarining in'ikosi sifatida tarix, hudud tabiiy qazilma boyliklari haqida ma'lumot berishi jihatidan geologiya kabi fanlarning o'rganish va tadqiq etish obyekti hisoblanadi. Ularda xalq hamda el-yurtning tarixi, kechmish taqdiri o'zining ifodasini topgan. Joy nomlari qadim tarixga ega bo'lgan elat, millat hamda xalqlarning tarixiy tajribasi o'laroq vujudga kelgan o'ziga xos noyob yodgorliklardan biri sanaladi. Shu kabi xususiyatlarini inobatga olib muqaddas qadamjolarining nomlanishiga oid ba'zi bir xususiyatlarni ko'rib chiqishni maqsad qildik.

Chunki yurtboshimiz Oliy Majlisdagi murojaatnomasidagi "Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" degan so'zlari toponomika sohasiga ham birdek taalluqlidir.

Joy nomlari nomlanishi o'ziga xos murakkab hodisa hisoblanib, bir qancha jihatdan tahlil qilishni talab etadi. Hozir biz "Tutakota" qadamjosining nomlanishiga oid ba'zi bir fikrlar talqinini ko'rib chiqib, so'ngra lingvistik jihatdan nomlanishiga oid ma'lumotlarni keltirishni maqsadga muvaffaq deb hisobladik. "Tutakota" qadamjosi Qashqadaryo viloyati

Yakkabog' tumanida joylashgan. Shu "Tutakota" qadamjosi nomlanishi Amir Temur nomi bilan bog'liqligi diqqatlidir. Qadamjoning nomlanishiga oid qimmatli ma'lumotlarni shu qishloqda istiqomat qiluvchi 1960-yilda tug'ilgan Supiyeva Muazzam Attayevna tomonidan yozib oldik. Muazzam opaning e'tiroficha qishning ayozli kunlarining birida Amir Temur o'z sarkardalari bilan o'tib ketayotganda tunash uchun joy izlab shu maskanga keladi. Shayx Shodi Vali bobo ismli avliyosifat kishi ularni kutib oladi. Mehmon qilish uchun ularga tut hamda uzum mevalarini olib keladi. Buni ko'rgan Amir Temur qanday qilib qishning chillasida uzum bilan tutni shunday saqlash mumkinligini so'raganda, u zot Amir Temurga yashnab turgan tok va tut daraxtlarini ko'rsatganda bundan hayratga tushgan Temur eng sevimli otini sovg'a qiladi. Sovg'adan mamnun bo'lgan Shayx Shodi Vali bobo otni o'zlari uchun ziyofat dasturxoniga taom uchun suydirmoqchi bo'ladi. Shunda Amir Temur qalbida sevimli otini suyishga buyurganiga ko'nglida ozroq g'ashlik tuyadi. Buni sezgan Vali bobo otni tig' tekkan joyiga qo'lini tekkazadi. Shu paytda otning tig' tekkan yeri g'oyib bo'ladi. Buni ko'rgan Amir Temur Shayx Shodi Vali boboga yana bir bor qoyil qolib: "Bu joyni muqaddas bir go'sha ekanligini aytib, muhrlarini shu yerga katta bir mol terisiga tushirib bugundan e'tiboran shu yer sizning makoningiz bo'ladi"- degan ekanlar. Bu birgina rivoyat tarzda og'izdan og'izga o'tib kelmoqda. Shundan kelib chiqib tut va tok vaqtlar o'tib qisqarishga uchrab "tutak" so'zi kelib chiqqan deyiladi.

"Tutak" toponimining lingvistik izohlardagi ma'nosi hamda yasaliish asosini ko'rib chiqib, keyin bir xulosaga kelimiz. To'ra Nafasov hamda Vazira Nafasovaning O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'atida keltirishicha, Tutak qishloq nomi .Tut-ak tut daraxti ko'p o'sgan joy . So'g'dcha tutak- harbiy lavozim, kichik harbiy vazirlik mansabi, kishi laqabi, laqab qishloq nomiga aylangan.¹

Yana bir tadqiqotda esa bu nomning o'zlashma nom ekanligi haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Begimov Odil To'xtamishovichning Janubiy O'zbekiston o'zlashgan toponimlarining tarixiy -lisoniy tadqiqi nomli kitoblarida Tutak so'zining toponim sifatida izohi quyidagicha talqin qilindi. Tut-ak asosli atoqli ot bo'lib, -ak qo'shimchasi orqali yasalgan. Mazkur qo'shimcha etimologik jihatdan o'rta fors tili davrigaborib taqaladi. Eroniy tillar faol so'z yasash xususiyatiga ega. Janubiy O'zbekiston toponomiyasida ham bu qo'shimcha yordamida yasalgan toponimlar mavjud. Bu qo'shimchafors-tojik, shuningdek, tojik tiliga o'zlashgan genetic jihatdan o'zbek va arab tillariga tegishli so'zlardan toponimlar yasaydi. Bunday yasaliish fors-tojik tili bazasida bo'lganligi uchun -ak qo'shimchasi orqali yasalgan toponimlarni eroniy toponim sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. -ak qo'shimchasi semantic jihatdan o'zbek tilidagi -cha, -choq, -chak qo'shimchalariga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqib, Tutak atoqli oti Tut+ak-tutcha; Shu kabi izohlari keltirilgan.

Yuqoridagi Tutak toponimining turli xil talqinlarini ko'rib chiqib, bu toponimning tarixiy hamda lingvistik talqinlari orasidagi o'xshashliklarni inobatga olib tut daraxti ko'p bo'lgan joy degan nomning eng maqbuli deyish mumkin nazarimda. Birgina toponimning kelib chiqishiga oid bir qancha talqinlar bu joy nomlariga oid ko'pgina ishlarning aniq yechimini topish lozim degan ustuvor masalani oldimizga qo'yadi. Aynan shu manzilgohning qadamjoga aylanib bugungi kunda ko'plab tashrif buyurchilarning e'tiborini tortayotganligi esa yuqorida keltirib o'tilgan rivoyatning haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatib turadi.

¹ T. Nafasov, V. Nafasova . "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohi lug'ati", Toshkent, Yangi asr avlodi 2007-yil, 64-bet

Xulosa qilib aytganda yurtimizda o'rganilishi kerak bo'lgan, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar talaygina biz bu toponimlarni tarixiy, geografik hamda lingvistik xususiyatlarini qiyoslash orqali o'rganib, toponimga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni keltirib chiqaramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B 22.
2. T. Nafasov, V. Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati, -Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2007, 64-bet
3. O. Begimov. Janubiy O'zbekiston o'zlashgan toponimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi, Toshkent, 2020-121-bet
4. A. Abdullayev. „Toshkent viloyati toponimlarining lingvomadaniy tadqiqi“ nomli nomzodlik dissertatsiasi 2023-yil, 5-bet